



ULUG'BEK HAMDAM IJODINING O'RGANILISHI

Yunusxo'jayeva Kumush Anvar qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti II kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20625018>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 08-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 10-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Ulug'bek Hamdam, o'zbek adabiyoti, zamonaviy nasr, roman, hikoya, adabiyotshunoslik, badiiy talqin, ijodiy meros, ilmiy tadqiqotlar, adabiy tanqid.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yozuvchi va adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdamning hayoti, ijodiy faoliyati hamda o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritilgan. Adibning nasriy, she'riy va ilmiy merosi haqida ma'lumot berilib, uning asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek va xorijiy adabiyotshunos olimlarning Ulug'bek Hamdam ijodini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari manbalar asosida ko'rib chiqilib, ulardagi asosiy ilmiy qarashlar umumlashtirilgan.

Badiiy adabiyot ramzlar tili, inson qalbidagi cheksiz iztiroblarini tasvirlashi bilan odamlarni har doim o'ziga tortib kelgan. Bugungi axborot zamonida ijodkorning asosiy vazifasi asar o'quvchisining badiiy didini tarbiyalash, nafosatni his qila olish, yaxshilikka intilishni o'rgatish, ruhiyatini o'stirishdan iboratdir. Zamonamizda salmoqdor ijod qilayotgan ijodkorlar barmoq bilan sanarli darajada. O'z o'quvchilariga ega, asarlarini keng kitobxonlar ommasi sevib o'qiyotgan ijodkorlardan biri – Ulug'bek Hamdamdir. Ulug'bek Hamdam shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim, xullas, serqirra ijodkordir. Ulug'bek Hamdamning adabiy-tanqidiy maqolalari, she'riy turkumlari, nasriy asarlari keng jamoatchilik e'tiborini tortgan. Ijodkorning ko'ngil xazinasi turli janr va uslubdagi asarlar shaklida maydonga chiqqan hamda muallifning adabiy shaxsiyatini namoyon qiladi. Adib zamonaviy o'zbek romanchiligida ma'naviy-axloqiy muammolarni yangicha tarixiy kontekstda badiiy talqin qilgan, o'zbek falsafiy romani taraqqiyotini yuksaltirgan, Istiqlol davrida yangi shaxs muammosini birinchilardan bo'lib ko'tarib chiqqan adib sifatida o'z o'rniga ega.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, badiiy ijodga o'z yo'nalishi bilan kirib kelgan adiblardan biri Ulug'bek Hamdam 1968-yil 24-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumani Yuqori Rovvot mahallasida duradgor oilasida tug'ilgan. Ukrainada 1986 – 1988-yillarda askarlik xizmatini o'tagan. ToshDU (hozirgi O'zMU) ning o'zbek filologiyasi fakultetida 1988 – 1993-yillarda tahsil olgan. 1992 – 1993-yillar Turkiyaning Ko'nya shahrida magistraturani davom ettirgan. Sharqshunoslik institutida 1993 – 1994-yillarda turk tilidan dars bergan. 1994 – 1996-yillarda ToshDU (hozirgi O'zMU) o'zbek filologiyasi fakultetining kunduzgi aspiranturasida o'qigan. 1997-yil Oybek she'rlari misolida "30-yillar o'zbek she'riyatida "sof lirika" muammosi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. "XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik asoslari"

mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida 1997 – 2009 yillarda katta ilmiy xodim sifatida faoliyat olib bordi. 2009-yildan 2016-yilgacha — „Sharq yulduzi“ jurnalining bosh muharriri. 2016-yildan Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU da jahon adabiyoti kafedrasida mudiri, 2017-yildan dotsent o'qituvchi, 2021-yildan hozirgacha O'zbekiston Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limi mudiri bo'lib ishlamoqda. Ulug'bek Hamdam bir necha nasriy, nazmiy hamda adabiy-tanqidiy to'plamlar muallifi hisoblanadi. Uning ilk nasriy kitobi „Yolg'izlik“ 1998-yili chop etilgan bo'lib, to'plamdan shu nomdagi qissa va qator hikoyalar o'rin olgan. Tanqidchilik qissani nasrimizdagi yangilanishlardan yaqqol darak berguvchi ramziy asar sifatida baholadi. Hikoyalarida ham muallif inson qalbining hamishalik bezovta, tahlikali qismini tasvirlashga urinadi. Yozuvchining „Muvozanat“ romani adabiy hayotimizda o'ziga xos voqea bo'ldi. Ushbu roman 1997-yili yozib tugatilgan va 2002-yili e'lon qilingan. Roman shu kecha-kunduzda yashab mehnat qilayotgan zamondoshlarimiz va ularning qalb ovozlari haqida. „Muvozanat“ mustaqillik yillarining qaynoq kayfiyatini aks ettirgan realistik asar sifatida yuksak baholandi. U. Hamdamning „Isyon va itoat“ romani e'tiqod va imon masalalariga bag'ishlab yozilgan. Asar qahramonlari tiriklik ma'nosi va ruh halovatini har ikki dunyo to'g'risidagi mushohadalar yordamida idrok etishga urinadi. Roman professor tarjimon N. Vladimirova tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, alohida kitob holida chop etilgan. Muallifning „Sabo va Samandar“ romani ishq mavzusida bitilgan asar bo'lib, unda pok va yuksak muhabbat tuyg'usi zamondoshlarimiz qismati orqali ulug'lanadi. Ulug'bek Hamdam shoir sifatida ham mazmunli qalam tebratgan. „Tangriga eltuvchi isyon“, „Atirgul“ va „Seni kutdim“ nomli she'riy to'plamlari chop etilgan. Shoir she'rlarida qolipsiz, jilovsiz va hayajonli kechinmalar oqimini tuyish mumkin. Ularda kelish va ketish, nur va zulmat, oq va qora, do'st va dushman kabi tushunchalar yonma-yon yashaydi hamda shoir iztirobi bilan ziynatlanadi. 2010-yili „Akademnashr“ nashriyotida chop etilgan „Uzoqdagi Dilmura“ nomli kitobida muallifning bitta qissasi, yangi hikoyalari hamda so'nggi yillar mahsuli bo'lmish she'rlari o'rin olgan. Istiqloq yillari muallifning „Badiiy tafakkur tadriji“ va „Yangilanish ehtiyoji“ nomli adabiy-tanqidiy to'plamlari e'lon qilindi. Ularda XX va XXI asr avvalidagi o'zbek, qisman jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi muammolari tadqiq etiladi. U. Hamdam J. Rumiyning „Ichindagi ichindadir“ va prof. U. Turonning „Turkiy xalqlar mafkurasi tarixi“ nomli asarlarini turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Prof. Umarali Normatov bilan birgalikda „O'zbek adabiyoti tarixi“ jildlari uchun „Shavkat Rahmon“ va „Asqad Muxtor“ adabiy portretlarini yozgan. Ayni paytda olimning yuqoridagi to'plamlarga kirmay qolgan o'nlab ilmiy maqolalari mavjudki, ular ham bevosita zamonaviy adabiyotimiz va adabiy tanqidchiligimizning turli dolzarb masalalariga bag'ishlangandir. Filologiya fanlari doktori Ulug'bek Hamdamovning asosiy ilmiy yo'nalishi XX asr va hozirgi zamon o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyati bilan bog'liq bo'lib, olim o'z ishlarida inson va adabiyot munosabatlari, ijod psixologiyasi, odam va olam mohiyatini tadqiq etishga intiladi. U. Hamdamning asarlari ingliz tiliga tarjima qilinib, Amerikada chop etilgan.

Ulug'bek Hamdam asarlari bugungi kunda allaqachon o'z o'quvchilarini topgan. Uning asarlari o'quvchini tanlaydigan asarlardir. Ijodidan bahramand bo'lmoqchi bo'lgan o'quvchida ma'lum intellektual tayyorgarlik bo'lishi kerak. Chunki Ulug'bek Hamdam asarlaridagi murakkab ramzlar uncha-muncha o'quvchiga og'ir tuyulishi hech gap emas. Eng muhimi shuki, Ulug'bek Hamdam o'quvchini faqat o'zigagina xos bo'lgan ruhiy olami bilan

tanishtiradi. Ulug'bek Hamdam mavzu va uslub tanlashda, bayon va asar tuzilishida hech kimga taqlid qilmaydi. Hatto unda kimdandir ijodiy ta'sirlanish degan taqlidning nozik shaklini ham payqamaysiz. Ulug'bek Hamdam asarlarini mutolaa qilgan o'quvchi o'zbek adabiyotida shakl va ma'nodagi yangilanishlardan yaxshi xabardor bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri bo'lgan Ulug'bek Hamdam ijodi adabiyotshunoslar, tanqidchilar va tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Uning she'riy va nasriy asarlarida inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar, e'tiqod, erkinlik va shaxs mas'uliyati kabi masalalar chuqur badiiy talqin etilgani sababli ijodi turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Ulug'bek Hamdam asarlari, avvalo, zamonaviy o'zbek adabiyotidagi ruhiy-psixologik yo'nalish doirasida tahlil qilingan. Adabiyotshunos olimlar uning roman va qissalarida qahramon ichki kechinmalari, ruhiy ziddiyatlar, iymon va shubha o'rtasidagi kurash badiiy markazga aylanganini ta'kidlashadi. Shu jihatdan professor Marhabo Qo'chqorova o'zining "Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari" monografiyasida hozirgi adabiy jarayon manzaralarini tashkil etuvchi badiiy ijod psixologiyasi masalasi iste'dodli yozuvchilar qatorida Ulug'bek Hamdam ijodi misolida ham kuzatilgan. Monografiyada "Ulug'bek Hamdam prozasida ruhiyat talqini" nomi ostida katta maqola berilgan bo'lib, M. Qo'chqorova bu maqolada adibning "Uzoqdagi Dilmura" nomli kitobidan o'rin olgan qissa va hikoyalarni tahlil qilib chiqqan. "Ulug'bek Hamdamovning "Uzoqdagi Dilmura" nomli qissa, hikoya va she'rlari jamlangan yangi kitobi nashr etildi. Mazkur to'plamga adibning "Yolg'izlik" qissasi, "Tosh", "Uzoqdagi Dilmura", "Lola", "Qaytish", "O'tash", "Yaxshi odamlar" hikoyalari hamda "Qirq yoshning tavallosi" sarlavhasi ostidagi yangi she'rlari tartib berilgan. Adabiyotshunos B. Karimov kitobning kirish so'zida muallifni turli janr va uslubda ijod etayotgan ijodkor sifatida qayd etib shunday deydi: "Ulug'bek adabiy-tanqidiy maqolalari, she'riy turkumlari, nasriy asarlari bilan adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Ijodkorning ko'ngil xazinasini turli janr va uslubdagi asarlar shaklida maydonga chiqadi hamda muallifning adabiy shaxsiyatini namoyon etadi". Mazkur to'plamga kiritilgan ilk asar "Yolg'izlik" qissasi B. Karimov, Q. Yo'ldoshev, R. Rahmat kabi olim, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, noan'anaviy uslubda bitilgan". Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev ham qissaning mohiyati haqida juda jo'yali fikrlar bildirib: "Yolg'izlik" qissasida esa aynan tartibsizlik, bo'lganda ham, voqelikdagi emas, inson xayolotidagi, kechinmalaridagi tartibsizlikning o'zi tasvirga olingan: Bil'aks, o'y-xayollarning tartibsiz va noizchil oqimini berishning o'ziga badiiy maqsad deb qaraydi. Ma'lumki, xayolotda izchillik, muntazamlik bo'lmaydi. Shuning uchun odam xayolni emas, xayol odamni yetaklab yuradi" -deydi.

Bir qator olimlar Ulug'bek Hamdam ijodini falsafiy-adabiy tafakkur nuqtayi nazaridan o'rganishgan. Ular yozuvchi asarlarida Sharq va G'arb falsafasi, islomiy tafakkur, tasavvufiy qarashlar bilan zamonaviy inson muammolari uyg'unlashganini qayd etadilar. Bu yondashuv Ulug'bek Hamdam ijodining g'oyaviy-badiiy qatlamlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda Ulug'bek Hamdamning "Muvonazat" asarini har kim o'z qarichi yetgudayin tahlil qilayotgan bir paytda bu roman Amerika Qo'shma Shtatlarida qiziqish uyg'otdi. "Muvozanat" ning Amerikadagi muxlisi Richal Narrid tadqiqotiga munosabat bildirish maqsadida asarni yana bir bor o'qib chiqish zarurati tug'ildi," - deb yozadi o'zbekistonlik adabiyotshunos olimi Zulxumor Mirzayeva. Olima "Muvozanat"ning Amerikadagi e'tirofi borasida davom etadi: "Natijada, romanda tasvirlangan har qanday voqelik faqat tashqi xususiyat, yagona alomat bilangina bog'liq emasligi; totalitar tuzum va o'tish davridagi og'ir turmush voqealarini badiiy

o'zlashtirish, ularni zamondoshlarning ichki dunyosi, ruhiy olami orqali atroficha taftish etishda keng imkoniyatli ramziy obrazlardan foydalanishning o'ziga xos usullari; joy nomlari, tanlangan ismlar qahramonlarning ichki va tashqi konfliktlarida chuqur majoziy ma'no kasb etganligi; eng muhimi, Olam muvozanatining asosi, uning me'yorini ta'minlash vazifasi yuklangan ulug' insonlar qismati chuqur badiiy-falsafiy mazmunda ifodalanganligi ma'lum bo'ldi. Ochig'i, asarning bu xususiyatlarini uni ilk bor o'qiganimda ilg'ay olmagandim". Zulxumor Mirzayeva amerikalik olim Richal Narrid va uning kasbdoshlarini "Muvozanat" romani befarq qoldirmaganini ta'kidlaydi. Ma'lum bo'lishicha, asar "Markaziy Osiyoni o'rganish bo'limi" barcha professor o'qituvchilari, amerikalik o'zbeklar tomonidan katta qiziqish bilan o'qilgan va kafedrada unga bag'ishlangan keng ko'lamlı seminarlar tashkil etilgan. Zulxumor Mirzayeva amerikalik olimaning "Muvozanat" ustidagi ishi haqida shunday yozadi: "Tadqiqotchi romanning boshqa asarlardan farqi va qiymatini uch muhim omil bilan izohlaydi: "Zamonaviy tilshunoslik oqimida yozilgan bu asardagi o'ziga xos birinchi faktor asar qahramonlarining xarakterlariga xos muomala uslubi; ikkinchisi, millat sifatida o'z-o'zini anglash yo'lining milliy xarakter mushtarakligida aks ettirilishi, uchinchisi, kitobxonning ko'ngil ehtiyoji sifatida yetilgan mavzuning jasorat bilan aks ettirilishi natijasida nafaqat kichik, balki katta doiradagi (xorijlik) muxlislarga ega bo'lganligi".

Adabiy tanqidchilar Ulug'bek Hamdamni mustaqillik davri adabiyotida yangi badiiy tafakkur egasi sifatida baholashadi. Ular yozuvchining tili, ramziy obrazlari, ichki monolog va falsafiy mushohada usullaridan foydalanishini zamonaviy adabiy jarayon bilan bog'lab tahlil qilganlar. Shuningdek, uning she'riyatida erkin ruh, ichki isyon va ma'naviy poklanish g'oyalari yetakchi ekaniga e'tibor qaratilgan. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov o'zining "Adabiy jarayonda mom sindiromi" risolasida birgina ijodkor – Ulug'bek Hamdam ijodi, aniqrog'i, ikki romani – "Muvozanat" va "Isyon va itoat" tevaragida kechgan bahs-munozaralar ustida mushohada yuritadi. Olim dastlab "Muvozanat" romani haqida shunday deydi: "Muvozanat" roman janriga qo'yiluvchi risolaviy talablarga to'la javob berib, milliy tariximizdagi burilish pallalarini, hayoti shunday pallalarga to'g'ri kelgan insonlar ruhiyatidagi yevrilishlarni keng, epik ko'lamda aks ettirilgan "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Lolazor" singari barmoq bilan sanarli qatordan joy oldi. Darvoqe, shularni e'tiborda tutib, o'n uch yil avval, qo'lyozmani qaytarish chog'i muallifni roman bilan tabriklarkan, uning "Roman desam.... bo'ladimi?" degan savoliga qat'iy qilib "Roman!" – degandim va hamon shu fikrda sobitman". Dilmurod Quronov Ulug'bek hamdam ijodini yuqori baholaydi, o'z vaqtida nazar- pisand qilmagan ayrim olim-u adiblar ko'z o'ngida ilmiy dalillari bilan obro'sini yuqoriga ko'taradi. "Isyon va itoat" romani tahlilida olim biroz hafsalasi pir bo'lgani, "Muvozanat" muallifidan o'sha ruhdagi bugungi kunimizni dadil va teran tahlil etgan realistik asar kutganini aytadi. Keyinchalik bu bir xudbinlik ekanini tan olib "Isyon va itoat" da milliy turmush, umuman, reallik bilan bog'lanish shartli va ancha zaif. Ya'ni muallif haqiqatga monand realistik obrazlar-u manzaralar yaratishni maqsad qilmaydi. Shartli-ramziy obrazlar vositasida olam-u odam mohiyatini anglashga intiladi. Shu jihatdan qaralsa, "Isyon va itoat"ga rivoyatnamolik xos bo'lib, ifoda xususiyatlariga ko'ra u, A.Kamyu, F.Kafka, G.Markes, X.Kortasar kabi san'atkorlarning asarlariga yaqinroq. Real voqelik bilan aloqasi zaif bo'lganidan "Isyon va itoat" dagi obrazlar xuddi masal va rivoyatlardagi kabi avvalboshdanoq universallik kasb etadi". Dilmurod Quronov yozuvchining asarlarini ijobiy tahlil qilar ekan, lekin ularni kamchiliklardan butkul xoli, degan fikrdan mutlaqo yiroq turadi. Ularda, xususan, "Muvozanat" bilan "Isyon va itoat" da hali sayqallanishi zarur bo'lgan o'rinlar

talaygina ekanligini aytib o'tgan. "Umid qilamanki, kaminani kamchiliklarning bor yoki yo'qligi emas, "ularga tuzatsa bo'ladigan, juz'iy deb qarash kerakmi yo asarning hayot-mamotini hal qiluvchi debmi?" degan savol qiziqtirgani va ustozlar fikriga tayanib, mazkur savolga "Tuzatsa bo'ladigan, juz'iy!" deya javob berganimni o'quvchi tushunib oldi".

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdam ijodi adabiyotshunoslar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilib, zamonaviy o'zbek adabiyotining muhim hodisasi sifatida baholanmoqda. Uning asarlari nafaqat badiiy, balki falsafiy va ma'naviy jihatdan ham chuqur ilmiy tahlil qilishga munosibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov B. Ulug'bekning dil izhori. Uzoqdagi Dilnura. T.: 2010.
- 2.Yo'ldoshev Q. Dardchil tuyg'u va bezovta ruh. Yoniq so'z. T.:2006.
- 3.Mirzayeva Z. "Muvozanat" – Amerikada. [http: ulugbekhamdam.uz](http://ulugbekhamdam.uz)
- 4.Quronov D. Adabiy jarayonda mom sindiromi. –T.: 2010.

